

SURXONDARYO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT


2026-yil 1-may holatiga ko'ra

- I. Korxonalar va tashkilotlarning soni
- II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar
- III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar
- IV. Korxonalar va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

I. Korxonalar va tashkilotlarning soni

2026-yil 1-may holatiga ko'ra, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (dehqon va fermer xo'jaliklari bundan mustasno) 26 148 tani tashkil etadi, shundan 21 779 tasi yoki 83,3 foizi kichik korxonalar va mikrofirmalardir. 2025-yilning shu davriga nisbatan ko'payish 7,9 foizni, jumladan, kichik biznes va mikrofirmalarda 7,9 foizni tashkil etdi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (birlikda)



Yillar	Korxonalar va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
2026	26 148	21 922	21 779
2025	24 233	20 269	20 182
2024	23 967	19 960	19 854
2023	25 850	21 943	21 832
2022	29 405	25 560	25 450

Hududlar bo'yicha eng ko'p faol korxonalar va tashkilotlar Termiz shahrida – 19,9 foiz, Denov – 11,3 foiz, Jarqo'rg'on – 7,4 foiz, Sherobod – 7,2 foiz va Termiz tumanlarda – 6,4 foizdan faoliyat ko'rsatmoqda.

Tadbirkorlik va kichik biznes subyektlarining umumiy sonidagi salmoqli ulushi Termiz shahrida – 88,9 foiz va 88,2 foiz, Denov – 83,3 foiz va 82,7 foiz, Jarqo'rg'on – 84,5 foiz va 84,2 foiz hamda Sherobod – 85,4 foiz va 84,7 foiz tumanlarga to'g'ri keldi.

Shahar va tumanlar	Korxonalar va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
Termiz shahri	5 212	4 635	4 597
Denov tumani	2 960	2 467	2 448
Jarqo'rg'on tumani	1 931	1 632	1 626
Sherobod tumani	1 874	1 601	1 588
Termiz tumani	1 685	1 516	1 504
Qumqo'rg'on tumani	1 679	1 366	1 362
Sho'rchi tumani	1 653	1 368	1 364
Sariosiyo tumani	1 450	1 108	1 099
Oltinsoy tumani	1 340	1 068	1 062
Angor tumani	1 309	1 110	1 103
Uzun tumani	1 236	977	971
Qiziriq tumani	1 140	949	940
Muzrabot tumani	1 032	836	832
Boysun tumani	952	734	732
Bandixon tumani	695	555	551

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

Korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlarning (tadbirkorlik subyektlari va kichik biznes subyektlarining) eng ko'p qismi "Savdo" tarmog'ida qolmoqda, ularning ulushi 2026-yil 1-may holatiga 33,9 foizni (40,5 foiz va 40,6 foiz) tashkil etdi.



Ikkinchi o'rinda "Sanoat" 12,0 % (14,2 % va 14,2 %), uchinchi o'rinda "Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi" 8,7 % (10,2 % va 10,2 %).


Birgalikda ushbu uch turdagi faoliyat ularning umumiy sonining 50 % dan ortig'ini tashkil qiladi.

Korxonalar va tashkilotlar

Iqtisodiy faoliyat turi	Korxonalar va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	Kichik biznes subyektlari
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	2 266	2 220	2 230
Sanoat	3 139	3 096	3 120
Qurilish	1 958	1 920	1 940
Savdo	8 876	8 843	8 876
Tashish va saqlash	641	631	636
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 895	1 885	1 888
Axborot va aloqa	451	443	444
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	751	475	484
Boshqa turlar	6 171	2 266	2 304

II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar

2026-yil 1-may holatiga ko'ra, 21 922 ta faol tijorat korxonalaridan 14 725 tasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar tashkil etilgan bo'lib, ular tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinni egallab turibdi.



Tadbirkorlik subyektlari


Shundan kelib chiqib, MChJlar viloyatimizda biznes yuritishning eng keng tarqalgan shakli degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Tashkiliy-huquqiy shakli	Tadbirkorlik subyektlari soni (birlikda)	Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi (foizda)
Mas'uliyati cheklangan jamiyat	14 725	67,2
Xususiy korxonalar	3 993	18,2
Oilaviy korxonalar	2 937	13,4
Aksiyadorlik jamiyati	16	0,1
Boshqalar	251	1,1

III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan 544 ta korxonalaridan 66 tasi qo'shma korxonalar va 478 tasi xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.



Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar

2026-yil 1-may holatiga ko'ra, chet el investitsiyalar ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining soni, 2024-yilning mos davriga nisbatan 199 taga oshgan. Bu asosan, savdo sohasida 164 tadan 306 taga (o'sish 142 taga), axborot va aloqa sohasida 6 tadan 37 taga (o'sish 31 taga) va qurilish sohasidagi korxonalar sonining 22 tadan 38 taga, (o'sish 16 taga) ko'payishi hisobiga yetdi.

Iqtisodiy faoliyat turi	Jami:	shundan:	
		Qo'shma korxonalar	Xorijiy korxonalar
Jami:	544	66	478
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	39	13	26
Sanoat	77	25	52
Qurilish	38	7	31
Savdo	306	12	294
Tashish va saqlash	13	1	12
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	15	2	13
Axborot va aloqa	37	-	-
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	5	1	4

Boshqa turlar 13 5 8

Ayrim davlatlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

Viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar tahlil qilganda, yetakchi o'rinni 315 ta korxonalar bilan Afg'oniston respublikasi egalladi. Bu viloyatdagi chet el investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 57,9 foizini tashkil etdi. Surxondaryo viloyati iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritib hissasini qo'shaytgan mamlakatlar orasida Rossiya Federatsiyasi (9,6 %), Tojikiston (7,4 %), Xitoy (7,2 %), Turkiya (5,3 %) va Qozog'iston (2,4 %) ham alohida o'rin egallaydi.

Davlatlar	Jami:	shundan:	
		Qo'shma korxonalar	Xorijiy korxonalar
Jami:	544	66	478
Afg'oniston	315	14	301
Rossiya	52	13	39
Tojikiston	40	7	33
Xitoy	39	8	31
Turkiya	29	7	22
Qozog'iston	13	2	11
Pokiston	10	-	10
Eron	6	4	2
Hindiston	5	2	3
Buyuk Britaniya	4	1	3
Janubiy Koreya	4	1	3
Belorussiya	4	-	4
Armaniston	3	3	-
Turkmaniston	2	1	1
Ozarbayjon	2	-	2
Qirg'iz Respublikasi	2	-	2
Yaponiya	1	1	-
AQSH	1	1	-
Ukraina	1	-	1
Germaniya	1	1	-
Boshqa davlatlar	10	-	10

IV. Korxonalar va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

Registrlarni yuritish bo'yicha statistik faoliyatni amalga oshirish uchun asos bo'lib Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-sentabrdagi "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini yuritish va uning asosida davlat xizmatini ko'rsatishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 539-son qaroriga muvofiq Korxonalar va tashkilotlarning ma'lumotlari statistik tasniflagichlarga asosan shakllantiriladi.

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi. Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2026-yil 1-may holatiga ko'ra, (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Metama'lumot uchun havolalar:

[Metama'lumot korxonalar va tashkilotlar soni](#)

[Glossariy](#)

[Statistik klassifikatsiyalar](#)

Mavzuga doir ko'rsatkichlar::

[Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyati soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni \(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, oylik\)](#)

[Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sanoat yo'nalishida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Qurilish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Savdo sohasida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Tashish va saqlash xizmatlari sohasida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Axborot va aloqa sohasida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

Tayyorlash uchun mas'ul:

Raqamlashtirish va statistik
registrlarni yuritish bo'limi

Ijrochi:

O. Raxmonov
55 451-80-00 (76-50)

Maznil:

190108, Termiz shahar,
At-Termiziy ko'chasi, 7-uy
